

O.GENRI VA O'ZBEK HIKOYANAVISLARINING XARAKTER YARATISH MAHORATI

Saitov Suxrob Djumaydillayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), v.v.b.dotsent

Email: sukhrob_uzb@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378363>

Annotatsiya: Ushbu maqola Hikoyada xarakterlar boshqa katta hajmdagi epik janrlardan farqlidir. O.Genri va o'zbek adabiyoti vakillari ijodida ikkala tipga ham mansub xarakter darajasiga ko'tarilgan, o'zining individual qarashlari, fazilatlari yoki illatlariga ega bo'lgan original obrazlarni uchratamiz. Bu obrazlardagi xarakterlar ishonarli, ularning gap-so'zlari, yurish-turishlari, hatti-harakatlari, tuyg'ulari, maqsadlari hammasi badiiy haqiqatlarga asoslangan.

Kalit so'zlar: Obraz, personaj, xarakter, rancho, cho'pon.

Abstract: In this article, the characters in the story are different from other large-scale epic genres. In the works of O. Henry and representatives of Uzbek literature, we find original images that have risen to the level of character belonging to both types and have their own individual views, qualities or vices. The characters in these images are convincing, their words, behavior, actions, feelings; goals are all based on artistic truths. These heroes are not alike; in general, it is difficult to find characters like them in world literature.

Keywords: Image, character, character, ranch, shepherd.

Аннотация: В данной статье персонажи повести отличаются от других масштабных эпических жанров. В произведениях О.Генри и представителей узбекской литературы мы находим оригинальные образы, поднявшиеся до уровня характеров, принадлежащих к обоим типам и обладающие своими индивидуальными взглядами, качествами или пороками. Убедительны персонажи этих образов, их слова, поведение, действия, чувства; все цели основаны на художественных истинах. Эти герои не похожи друг на друга; вообще, подобных им персонажей трудно найти в мировой литературе.

Ключевые слова: Образ, персонаж, характер, ранчо, пастух.

Har bir asarning qimmatini uning janri, hajmi, ko'tarilgan muammo, tasvirlangan voqelik bilan emas, muallif badiiy maqsadi va niyatini o'quvchiga yetkazuvchi harakter va unda o'z ifodasini topuvchi g'oya bilan belilanaadi. Bular bir hodisaning ikki mohiyati bo'lib, hoya obrazda ifodalanadi. Aynan obraz g'oyani, yozuvchi badiiy maqsadini tashuvchi tipdir. "Qahramon – personajga aylangan ideadir", – deb yozganda Bal'zak haq edi. "Obraz tushunchasi xarakter tushunchasi bilan bog'liqdir. Ammo bu ikki termin o'ziga xos tafovutlarga ham egadir. Ana shu o'ziga xosliklarni tushunmaslik ayrim hollarda obraz va harakter terminlarini aralashtirib ishlatishga olib keladi. Obraz xarakterga nisbatan keng tushuncha bo'lib, xarakter obrazning mukammallashgan, turli xususiyatlari aniq ko'rinib turgan, individual xususiyatlari kashf etilgan obrazdir".

Adabiyotshunoslikda inson obrazi – xakterga ma'nodosh sifatida, umumiy hollarda, obraz istilohi, qo'llanadi. Obraz atamasi keng ma'noda hayvonlarga, jonsiz narsalarga (majoziy ma'noda) nisbatan ham qo'llanadi. Sababi bunday obrazlar insonga xos harakter va xususiyatlar bilan shakllantirilgan va obraz darajasiga ko'tarilgan. Umuman olganda, obraz

tushunchasi juda keng ma'noli tushuncha bo'lib, tor ma'noda qo'llangandagina insonga nisbatan qo'llash mumkin. "Asarda obrazning mukammallashgan shakli xarakterdir. Asarda ishtirok etgan hamma obrazlar xarakter darajasiga ko'tarilmagan bo'lishi mumkin, biroq yozuvchi har bir obrazni xarakter darajasiga ko'tarish uchun harakat qiladi. Xarakter – bu aniq iroda yo'nalishi va o'zining individual xususiyatlari bilan boshqalardan keskin ajralib turadigan shaxslar obrazidir". Ba'zi hollarda esa personaj atamasi ham qo'llanadi. Bu haqda adabiyotshunos D.Quronov shunday yozadi: "Adabiyotshunoslikka doir manbalarda inson obrazi tushunchasi ko'pincha personaj termini bilan ifodalanadi.

Personaj – (lot. Persona – shaxs, teatr maskani) deganda badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq sub'ekti tushuniladi. Demakki, asarda qimirlaganki inson obrazi bo'lsa – katta yo kichilligi, sujetdagi ishtiroki, asar strukturasi tutgan o'rnidan bimalol qo'llash mumkin, aksincha qo'llash esa xato bo'ladi". Shuningdek, bu istilohning boshqa ma'nosi ham bor bo'lib, badiiy asarlarda ishtirok etuvchi ikkinchi darajali shaxslarga nisbatan ham qo'llanadi. Ko'rinib turibdiki, bu terminlar yonma-yon ishlatilsa-da, ular mohiyatan bir-biridan farqli hodisalardir.

Aytish kerakki, hikoyada xarakterlar boshqa katta hajmdagi epik janrlardan farqlidir. Chunki qahramonlar hikoyada xarakter jihatdan tayyor holda kirib keladi va bu janrda ekspozitsiya bo'lmaganligi sababli obrazlar fe'l-atvori haqida muallif alohida to'xtalib o'quvchiga ma'lumot bermaydi. Bu haqda F.M. Golovechenko "Hikoyada xarakter taraqqiyotda berilmaydi. Har bir shaxs tayyor holda namoyon bo'lib, uning biror xususiyati ochib beriladi", – deb yozgandi. L.I. Timofeev esa "Xarakter shakllangan, tayyor holda ko'rsatiladi. Aks ettirilayotgan volqeagacha harakterning qanday bo'lganligi, u tugagandan so'ng qanday bo'lishligi tasvirlanmaydiki yo'l-yo'lakay aytib o'tiladi", deb izoh bergandi. Bu kabi bir qator olimlar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, ba'zi hikoyalarda xarakterlar evolyusiyasini kuzatish mumkin. Xususan, tadqiqotimiz obekti sifatida tanlangan Amerika adabiyotining hikoyachilik maktabinia yaratgan O.Genri hamda O'zbek adabiyoti vakillari A.Qahhor, X.Sultonov, N.Eshonqul, I.Sulton hikoyalarda har ikki turdagi xarakterlarning eng mukammal va go'zal namunalarini uchratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Dunyo adabiyotshunosligida Amerika adabiyoti hamda O.Genri ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar anchagina. O.Genri va uning ijodi, xususan, hikoyachilik maktabi olimlar tomonidan turli rakurslarda o'rganilgan. Amerika adabiyoti, hikoyachilik maktabi va O.Genri hikoyalariga xos poetik takomil masalalari, syujetning o'ziga xosligi, uslub, obrazlar dunyosi, psixologik tahlil muammolari, kutilmagan yechim kabi masalalar XX asrning o'rtalaridan boshlab dunyo tadqiqotchilari tomonidan qiyosiy, ilmiy-nazariy nuqtai nazardan yetarlicha tadqiq etilgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir va mushtaraklik muammosini muayyan xalq adabiyoti va ayrim adiblar ijodi materialida M.K. Bronich, A.V. Vashenko, V.M. Tolmachev, M.V. Tolstanova, X.Blum, X.Bxaba, I.M. Udler, T.K. Sinsadze, A.A. Gugnin, V.B. Zemskov, A.F. Kofman, V.N. Kuteyshikova, J.Benito, L.P. Zamor, B.Kuper, L.Lil singari o'nlab adabiyotshunos olimlar, katta-kichik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mavzuga oid dissertatsiya, monografiya, risola va maqolalar e'lon qilingan.

Bu kabi ishlarda qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir va mushtaraklik xususiyatlari tavsiflangan va konkret adabiy asarlar materialida turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Qolaversa, o'zbek olimlari va yosh tadqiqotchi adabiyotshunoslari tomonidan ham qiyosiy adabiyotshunoslik masalalariga oid katta-kichik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, o'zbek hikoyachilik maktabi va o'zbek yozuvchilari poetik mahorati, hikoyalardagi badiiy til va uslub masalalari, adabiy ta'sir va o'xshashliklar, syujet tarkibiy qismlari, obrazlar masalasi, detal va tasvir munosabatlari adabiyotshunosligimizda o'tgan asrdan buyon o'rganilib kelinmoqda. Bu ishlar orasida A.Qahhor, X.Sultonov, N.Eshonqul, I.Sulton asarlariga bag'ishlangan talaygina tadqiqotlar ham amalga oshirilgan.

Milliy adabiyotshunosligimizda bugungacha o'zbek adiblari yoki shoirlarining O.Genri ijodidan ta'sirlanishi masalasi alohida o'rganilmagan. Ammo adabiyotshunoslikning dunyoviy rivojida o'zini oqlagan "ta'sir", "o'rganish", yoki "ustoz-shogird" deyilmagan holda ham adabiy matnlarda ko'zga tashlanadigan mushtarak, o'xshash, hamohang jihatlar nuqtai nazaridan har bir asarni tenglik asosida, adabiy parallellik tizimida o'rganish, maxsus tadqiqot olib borish taqozo qilinadi.

AQSh va o'zbek adabiyotida realistik hikoya taraqqiyoti, AQSh hikoyachilik maktabi, adabiy ta'sir va o'ziga xoslik, O.Genri ijodi va milliy adabiy jarayon masallari tahlillar asosida aniq ko'rsatilgan. Hikoyada insoniy taqdirlarning badiiy talqini, O.Genri va o'zbek hikoyanavislarining harakter yaratish mahoratida ko'zga tashlanadigan mushtaraklik va o'ziga xosliklar, voqealar rivoji va yechim paradoksi qiyosiy tahlillar jarayonida o'z aksini topgan. Ingliz va o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy muammolarning badiiy sintezi, hikoyada konflikt va insoniy taqdirlar, adabiy ta'sir va milliy mentalitet kabi muammolar tadqiq etilib, o'z yechimini topgan. Ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir munosabatlari O.Genri va A.Qahhor, X.Sultonov, N.Eshonqul, I.Sulton hikoyalari o'zaro qiyoslab o'rganilib, mushtarak va o'ziga xos individual jihatlar tahlillar asosida aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola tadqiqoti doirasida tahrirlash, kuzatish va qiyoslash metodlaridan o'rinli foydalangan holda Jahon adabiyotshunosligida milliy nasr taraqqiyotidagi adabiy ta'sir, mushtaraklik, o'xshashliklar kompartavistik metod asosida ilmiy nazariy, qiyosiy-tipologik jihatdan izchil o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, ingliz va o'zbek adabiyotidagi ijodkor ijtimoiy-estetik ideali, umuminsoniy g'oyalar, falsafiy qarashlar, insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi paradoksal holatlarni tadqiq hamda talqin etish kuchaymoqda.

Xulosa

O.Genri realistik yozuvchi sifatida o'z hikoyalarda hayot haqiqatini, ijtimoiy hayotni real aks ettirishni maqsad qilgan. Ayni davrda o'zbek adabiyoti ijodkorlari ijtimoiy hayotdagi real voqelikni badiiy shaklga solishda, undagi voqealarni, qiziqarli va noodatiy dispozitsiyani kompozitsiyaga aylantirishda uni ixcham, shafqatsiz hayotning kutilmagan yakunlari kabi yechimlar bilan yakunlashda O.Genri hikoyachilik maktabining ta'siri beqiyosdir. O.Genri asarlarining o'ziga xosligi va noodatiyligini ta'minlab turgan syujetning tarkibiy qismlari sifatida voqealar rivoji va yechim asosiy o'rinda turadi.

O.Genri va o'zbek hikoyanavislarining harakter yaratish mahorati, voqealar rivoji va yechim paradoksi, hikoyada konflikt va insoniy taqdirlar, ijtimoiy motivlar, uslub va



individuallik, ingliz va o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy muammolarning badiiy sintezi, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir masalalari aniq misollar yordamida tahlil qilingan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Қўшжонов М. Ижод сабоқлари (Адабий ўйлар). – Тошкент: ёш гвардия, 1973. 178-бет. (192 б)
2. Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси асослари. – Тошкент: Навоий университети, 2018. 99 бет. (480 б)
3. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М. 1963, С. 331-332
4. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: “Фан” нашрияти, 1991. 74-бет. (382 б)
5. O.Henri. Yigirma yildan so'ng. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. 8-bet
6. Saitov Suxrob Djumaydillayevich, Arabic linguistic symbols and the internalization of students' religious identity: A mixed methods analysis in the context of Islamic Religious Education. "Malque Publishing journal, Brazil." Published: September 12, 2025. <https://doi.org/10.31893/multirev.2026181>
7. Қахқор А. Ҳикоялар тўплами. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2023. 56-бет.
8. Saitov Suxrob Djumaydillayevich. The problem of comic type creation in Henry's works. American journal of pedagogical and educational research. ISSN (e): 2832-9791| volume 22, | march – 2024
9. Saitov Suxrob Djumaydillayevich. The development of events in stories and the paradox of the solution. Web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979, volume 5, issue 6, June – 2024.
10. Saitov Suxrob Djumaydillayevich. “Jahon va O'zbek adabiyotida hajviy tip yaratish muammosi”. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali Jild: 04, Nashr:01 | Yanvar – 2024 ISSN: 2181-2624. www.sciencebox.uz.